

siyosatining samaradorligini baholashning universal indikatorlari va modellari yo‘qligi davlat-xususiy sheriklikda siyosatning roli nazariy tahlil qilinmaganligi singari ilmiy bo‘shliqlar aniqlandi.

Turizm iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida davlat siyosatining o‘rni yoritildi. Davlatning strategik rejalashtirish, infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyalarni rag‘batlantirish va ekologik-ijtimoiy muvozanatni ta‘minlashdagi roli institutsional va solishtirma tahlil orqali asoslandi. O‘zbekiston tajribasida raqamlashtirish (sun‘iy intellekt, elektron to‘lovlar), madaniy merosni himoya qilish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini integratsiyalash zarurligi ta‘kidlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Esonboyev, B. O‘zbekiston Turizm Sanoati Muvaffaqiyatini Baholashning Xususiyatlari. *Green Economy and Development*, (12), 668505.

2. Turdibekov, X. Turizm Industriasini Barqaror Strategik Rivojlantirishda Qo‘llaniladigan Usullar Tahlili. *Green Economy and Development*, 3(2), 666441.

3. Taniyev, A. B. (2026). Turizm va barqaror rivojlanish: resurslardan samarali foydalanish va tashqi omillar. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 6(02), 35-45.

4. G‘ayratovich, I. G., & Bahodur o‘g‘li, N. B. (2025). Turizm sanoati va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri: O‘zbekistonning turizm sanoatini rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati. // *Zamonaviy ta‘lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g‘oyalar, takliflar va yechimlar*, 7(75), 53-55.

Jumanova, Z. Iqtisodiyotda Turizm O‘rnini Statistik Baholash Uslubiyoti. *Green Economy and Development*, 2(4), 663753.

***Gulzina HOMIDOVA,
Zarmed Universiteti magistranti,
Golib MUSTAFOYEV,***

***O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi professori v.b., i.f.d.***

QISHLOQ JOYLARIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI JADAL RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI VA IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda xizmat ko‘rsatish sohasining insoniyat evolyutsiyasidagi o‘rni, uning diniy manbalar va klassik iqtisodiy ta‘limotlar bilan bog‘liq nazariy asoslari yoritilgan. Qur‘oni Karim, Hadisu Sharif va buyuk allomalar – Al-Buxoriy, Farobiy, Yassaviy, Rumiy, Rabg‘uziy, Bobur, Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida xizmatning inson kamoloti bilan uzviy bog‘liqligi ta‘kidlangan. Xizmat ko‘rsatish sohasi jamiyat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida ta‘lim, sog‘liqni saqlash, savdo va turmush madaniyatini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etgani ko‘rsatib berilgan. Empirik ma‘lumotlar asosida shahar va qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish ulushi o‘rtasidagi tafovut tahlil qilinib, qishloq aholisi xizmatlardan foydalanishda sezilarli darajada ortda qolayotgani aniqlangan. Ayniqsa, qishloq joylarida xizmat

ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Kalit so'zlar: Xizmat ko'rsatish sohasi, insoniyat evolyutsiyasi, qishloq joylarda xizmat ko'rsatish infratuzilmasi, iqtisodiy samaradorlik, axborot jamiyati, xizmatlar iqtisodiyoti, unumli va unumsiz mehnat.

Аннотация. В данном исследовании рассматриваются роль сферы услуг в эволюции человечества, а также её теоретические основы, связанные с религиозными источниками и классическими экономическими учениями. Подчёркивается неразрывная связь сферы услуг с духовным и физическим развитием человека, отражённая в Священном Коране, хадисах и трудах таких великих мыслителей и учёных, как Аль-Бухари, Аль-Фараби, Яссави, Руми, Рабгузи, Бабур и Навои. Показано, что сфера услуг, являясь важнейшим компонентом общественного прогресса, играет ключевую роль в формировании образования, здравоохранения, торговли и культуры быта. На основе эмпирических данных проанализирован дисбаланс в доле сферы услуг между городскими и сельскими районами; выявлено, что сельское население существенно отстаёт в доступе к современным услугам. В связи с этим в качестве одной из наиболее актуальных задач определено развитие инфраструктуры сферы услуг в сельской местности.

Ключевые слова: Сфера услуг, эволюция человечества, инфраструктура сферы услуг в сельской местности, экономическая эффективность, информационное общество, экономика услуг, производительный и непроизводительный труд.

Abstract. This study examines the role of the service sector in the evolution of humanity, as well as its theoretical foundations in religious sources and classical economic doctrines. It highlights the interconnection between service and human development as emphasized in the Holy Qur'an, Hadith literature, and the works of great scholars and thinkers such as Al-Bukhari, Al-Farabi, Yassavi, Rumi, Rabghuzi, Babur, and Navoi. The research demonstrates that the service sector has played a significant role as an essential component of societal development, particularly in shaping education, healthcare, trade, and cultural standards of living. Based on empirical data, the study analyzes the disparity in the share of services between urban and rural areas, revealing that rural populations significantly lag behind in access to services. In particular, the development of service infrastructure in rural areas is identified as a pressing priority.

Keywords: Service sector, human evolution, service infrastructure in rural areas, economic efficiency, information society, service economy, productive and unproductive labor.

Insoniyat evolyutsiyasi xizmat ko'rsatish sohasining ta'lim, sog'liqni saqlash, savdo, yashash va ovqatlanish turlari orqali rivojlangan. "Qur'oni Karim", "Zabur", "Tavrot" va "Injil" kabi muqaddas kitoblarda bu haqda e'tiborga loyiq ma'lumotlar berilgan. Masalan, Qur'oni Karimning Baqara surasi 254-oyatida, "Ey imon keltirganlar, savdo-sotiq ham, do'stlik va shafolat ham bo'lmaydigan kun kelmay turib sizlarga rizq etib berganimizdan ehson qilinglar. Kofirlargina o'zlariga zulmkordirlar⁵⁷" deya, Alloh savdo-sotiq orqali rizq qilib bergan narsalardan uning yo'lida infoq-ehson qilishga da'vat qilgan. Demak, savdo xizmatlari o'sha qadim zamonlarda insonning o'zini tutishi, muomala madaniyati, o'z ehtiyojlarini qondirish, kishilarning jamiyat oldidagi majburiyatlari, iqtisodiy faoliyatni boshqarish usullarini qo'llashda muhim rol o'ynagan.

Asrlar davomida xizmat ko'rsatish sohasi insoniyat sivilizatsiyasining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Chunki, xizmat insonlarning turmush tarzi, buguni va ertasi, hayot va ohirati bilan bog'liq faoliyat hisoblanadi. Islomiy ta'limotlar bilan bog'liq

⁵⁷ <http://old.muslim.uz/index.php/rukn/irfon/item/25015> (murojaat qilingan vaqt 15/02/2025 soat 10:21)

Hadisu Sharif⁵⁸ manbalarida ham shunday ta’limotni uchratish mumkin. Buyuk allomalar Imom Ismoil Al-Buxoriy⁵⁹, Abu Nasr Farobiy⁶⁰, Ahmad Yassaviy⁶¹, Jaloliddin Rumiy⁶², Nosiruddin Burhoniddin Rabg‘uziy⁶³, Zaxiriddin Muhammad Bobur⁶⁴, Alisher Navoiy⁶⁵ kabi olamga mashhur olimlarning ijodiy ishlarida xizmatlarning tub mohiyati bilan inson kamoloti bog‘liqligi e’tirof etilgan. Masalan, Alisher Navoiyning Mahbub Ul-Qulub asarida ma’lum bir vazifani bajaruvchi “...olimlarga dastyor, shayxlarga xizmatkor, sayidlarga ko‘makchi va fuqaro xizmatiga hamisha tayyor bo‘lmog‘i kerak”⁶⁶ligi xususida fikr bildirib, mamlakat xizmatchisining jamiyatda muhim roli borligini e’tirof etgan.

Ammo, xizmat ko‘rsatish sohasining kelajagi, insoniyat kamoloti bilan bog‘liq bo‘lishiga qaramasdan, uning iqtisodiy faoliyat turi sifatida jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni chuqur tadqiq etilmagan. Bu esa, xizmat ko‘rsatish sohasining metodologik va metodik muammolarini tadqiq etishning obyektiv zaruratini yanada kuchaytirishni taqozo etadi. Shu sababli, xizmat ko‘rsatish sohasini har tomonlama tadqiq etish, uning mohiyati va o‘ziga xos iqtisodiy jihatlarini yoritish, zamonaviy iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini ochib berish, eng muhimi qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish muammolariga e’tiborni kuchaytirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Nazariy tadqiqotlar qishloq joylarida shahar joylariga nisbatan juda zaif rivojlanganligini ko‘rsatdi(1-jadval).

1-jadval

Ayrim davlatlarda xizmat ko‘rsatish sohasining shahar va qishloqlardagi ulushi (jamiga nisbatan foizda) 2023-yil

№	Mamlakatlar	Xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi(%)	
		Shahar	Qishloq
1.	Hindiston ⁶⁷	85	15
2.	Germaniya ⁶⁸	72,4	27,6
3.	O‘zbekiston	86,8	13,2
4.	Dunyoda ⁶⁹	80,4	19,6

1-jadvaldan ko‘rish mumkinki Hindistonda xizmat ko‘rsatish sohasi shahar joylariga nisbatan qishloq joylarida qariyb 6 barovarga, Germaniyada 2,6 barobarga, O‘zbekistonda 6,0 barobarga, jahon ko‘lamida ko‘rsatkich 4,1 barobarga ortda

⁵⁸ <http://old.muslim.uz/index.php/rukn/hadis> (murojaat qilingan vaqt 15/02/2024 soat 10:31)

⁵⁹ <https://arboblar.uz/uzkr/people/imam-ismail-al-bukhari> (murojaat qilingan vaqt 15/02/2024 soat 10:55)

⁶⁰ <https://arboblar.uz/uzkr/people/abu-nasr-farabi> (murojaat qilingan vaqt 15/02/2024 soat 10:52)

⁶¹ <https://arboblar.uz/uzkr/people/akhmad-yassavi> (murojaat qilingan vaqt 15/02/2024 soat 10:59)

⁶² <https://arboblar.uz/uzkr/people/dzhaloliddin-rumi> (murojaat qilingan vaqt 15/02/2024 soat 11:02)

⁶³ <https://arboblar.uz/uzkr/people/nasiruddin-burkhoniddin-rabguzi> (murojaat qilingan vaqt 15/02/2024 soat 11:04)

⁶⁴ <https://e-tarix.uz/shaxslar/726-maqola.html> (murojaat qilingan vaqt 15/02/2024 soat 10:46)

⁶⁵ https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%90%D0%BB%D0%B8%D1%88%D0%B5%D1%80_%D0%9D%D0%B0%D0%B2%D0%BE%D0%B8 (murojaat qilingan vaqt 15/02/2024 soat 10:48)

⁶⁶ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub (Qalblarga mahbub hikmatlar va hikoyatlar). Hozirgi o‘zbek tiliga tabdil. – T.: Sano-standart, 2018 y. 19-bet.

⁶⁷ https://www.business-standard.com/article/economy-policy/60-of-services-sector-units-in-rural-india-survey-110010100051_1.html (murojaat qilingan vaqt 21/03/2024 yil soat 11:39)

⁶⁸ <https://www.statista.com/statistics/624297/employment-by-economic-sector-in-germany/> (murojaat qilingan vaqt 21/03/2024 yil soat 12:19)

⁶⁹ https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_countries_by_GDP_sector_composition (murojaat qilingan vaqt 21/03/2024 yil soat 12:41)

qolmoqda. Demak, qishloq aholisi shahar joylariga nisbatan 4,3 barobar xizmatlarni kam iste'mol qilmoqda. Vaholangki, jahon miqyosida 45,3 foiz aholi qishloq joylarida istiqomat qiladi⁷⁰. Ma'lumotlarga qaraganda "jahondagi jami qashshoq aholining 70 foizi ham aynan qishloq joylarida yashovchi aholidir"⁷¹. Ularning ish o'rinlari, topayotgan daromadlari xizmatlarni yetarli darajada iste'mol qilish imkonini bermaydi. Agrar sohagagina qaramlik, ishning mavsumiy tabiati, mehnatning og'irligi, qishloq aholisini samarasiz band degan xulosaga kelish mumkin. Bular, qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirish zaruratini kuchaytiradi. Shu sababli, qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish muammolarini tadqiq etishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Mavzuning nomlanishi nuqtai nazaridan dastavval "xizmat ko'rsatish" tushunchasining tub mohiyatini ochib berish, uning nazariy asoslarini tadqiq etish zarur. Har qanday mustaqil iqtisodiy kategoriyaning tub mohiyati unga berilgan ta'rifda o'z ifodasini topadi.

Nazariy tadqiqotlarimiz ilmiy adabiyotlarda⁷² "xizmat ko'rsatish" tushunchasiga, mutaxassislar tomonidan berilgan ta'riflar diapazoni juda keng, turli-tuman, ayrim hollarda bir-biriga zid ekanligini ko'rsatdi.

Iqtisodiy klassik maktab namoyondalari A.Smit⁷³, J.B.Sey⁷⁴, D.Rikardo⁷⁵, T.R.Maltus⁷⁶, J.S.Mil⁷⁷ agrar jamiyatda xizmatlar sohasida milliy daromad yaratilmaydi, shu sababli, iqtisodiyotga o'z hissasini qo'shmaydi, deb hisoblaganlar. Masalan, ular sartaroshlar, ofitsiantlar, uy xizmatchilari, advokatlar milliy boylikni ko'paytirmaydi, deb qaraganlar. Ta'lim, sog'liqni saqlash kabi xizmat ko'rsatish turlari inson imkoniyatlarini oshirishi, aholining salomatligini mustahkamlashi va faqat shu kabi xizmatlar jamiyatda ishlab chiqarish samaradorligining oshishini ta'minlaydi, deb hisoblagan. Bizning nazarimizda, har qanday jamiyatda insonning bilim saviyasi, aqliy qobiliyati iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili hisoblanadi. Ilm-fan taraqqiyoti jamiyat ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan resurslarni tejash va ulardan samarali foydalanishga olib keladi. Ushbu omil iqtisodiyotning soha va tarmoqlarining rivojlanishida, insonlarning turmush tarzini tubdan o'zgarishiga xizmat qiladi. Hatto sartarosh ham iste'molchining hohish irodasidan kelib chiqib, o'zining bilim va kasbiy ko'nikmasi orqali uning talabini ro'yobga chiqaradi. Buning uchun ma'lum resurslar sarflanadi va qiymat yaratiladi. Shu sababli, har qanday jamiyatda xizmat ko'rsatish faoliyati o'z turi va ko'rinishidan qat'iy nazar, milliy boylikning ko'payishiga olib keladi.

Adam Smit (1723-1790) xizmat shaklidagi noz-ne'matlarning iqtisodiy

⁷⁰ https://www.eurekalert.org/pub_releases/2019-03/ifpr-2gf032219.php

⁷¹ <https://www.undp.org/content/undp/en/home.html>

⁷² Mardonov B.B. "Xizmat ko'rsatish sohasida aholi bandligini oshirish mexanizmlari" Monografiya/ "Iqtisod-Moliya", – T.: 2024. – 228 b.; Ishakova S.A. "Xizmat ko'rsatish sohasi va aholi daromadlari". Monografiya. SamDCHTI 2021. – 204 b.; Sattarov Sh.H. "O'zbekistonda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish" mavzusidagi iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi – Samaraqand 2022 yil

⁷³ Smith, Adam (1776) An Inquiry into the Nature and Causes of The Wealth of Nations. (accessible by table of contents chapter titles) AdamSmith.org ISBN 1-4043-0998-5

⁷⁴ https://en.wikipedia.org/wiki/Jean-Baptiste_Say (murojaat qilingan vaqt 15/02/2024 soat 19:56)

⁷⁵ https://en.wikipedia.org/wiki/David_Ricardo (murojaat qilingan vaqt 15/02/2024 soat 19:59)

⁷⁶ https://en.wikipedia.org/wiki/Thomas_Robert_Malthus (murojaat qilingan vaqt 15/02/2024 soat 20:18)

⁷⁷ https://en.wikipedia.org/wiki/John_Stuart_Mill (murojaat qilingan vaqt 15/02/2024 soat 20:34)

mazmunini to'laroq ochib berish hamda uning mamlakat ijtimoiy boyligining manbai sifatida qarash muammosini hal etish maqsadida o'zining jahonga mashhur "Halqlar boyligining tabiati va sabablari tadqiqoti" (1766) nomli asarida "unumli mehnat" va «unumsiz mehnat» tushunchalari xususida fikr bildirgan⁷⁸. Shu orqali A.Smit moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishni farqlab, dastlabki "xizmat" tushunchasining yaratilishiga katta hissa qo'shgan.

A.Smit qatori o'sha davr olimlari F.Kene (1694-1774), J.B.Sey (1767-1832), A.Marshall (1842-1924) kabi olimlar ham xizmat tushunchasini asoslashga urinib, iste'mol ne'matlarini moddiy va nomoddiyga ajratib farqlash zarurligini asoslashga uringanlar. Ularning fikricha, tovar shaklidagi ne'matlarni moddiy ko'rinishga ega bo'lishini va nomoddiy ne'matlardan farqlagan holda, xizmat tushunchasining shakllanishiga birinchilardan bo'lib, asos solganlar. O'sha davrlardan boshlab, xizmat ko'rsatish sohasi asosiy sohalardan ekanligi, uning ta'rif va tamoyillari asta-sekinlik bilan shakllanib, takomillashib, o'zining mustaqil mazmun mohiyatiga ega bo'ldi. Taniqli olimlardan F.Kotler xizmatga quyidagicha ta'rif beradi: "Xizmat – bu bir tomon boshqasiga taklif qilishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyat yoki qandaydir ne'mat bo'lib, egalik qilish huquqini bermaydigan foydali harakatdir",⁷⁹ deb hisoblaydi. MakKonnell, R.Kempbell kabi iqtisodchilar "Xizmat – bu iste'molchi, firma yoki hukumat to'lashga tayyor bo'lgan nomoddiy harakat yoki foydalanishdir,⁸⁰ deb ta'riflaydi. Demak, olimlar o'zlarining ushbu ilmiy qarashida xizmatni uch obyekt bo'yicha: ya'ni iste'molchi, firma va hukumat nuqtai-nazaridan qarash muhim ekanligini ta'kidlaydilar.

Amerikalik mashhur iqtisodchi Djon Gelbreyt xizmat ko'rsatish sohasini quyidagicha ta'riflaydi: "Industrialdan oldingi davrda xizmat ko'rsatish sohasi qishloq xo'jaligiga kirmaydigan iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilarning ko'pchilik qismi bir insonning ikkinchisiga shaxsiy xizmat qilishiga qaratilgan..."⁸¹. Demak, D.Gelbreyt agrar jamiyatda kishilar bir-birlariga ko'rsatgan xizmatlarini shaxsiy xizmat sifatida qaragan. Kishilar o'rtasidagi munosabatida biron-bir iqtisodiy manfaat yo'q, deb hisoblagan. Bizning nazarimizda, bunday yondashuv xizmat ko'rsatish sohasining mohiyatiga batamom zid. Sababi, bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat jarayoni ishtirokida qiymat va iste'mol qiymati yaratiladi, xizmat ko'rsatuvchi inson (ishlab chiqaruvchi) ham, xizmatning iste'molchisi ham o'zining iqtisodiy manfaatlarini qondirish maqsadida harakat qiladi. Xizmat ko'rsatuvchi o'z mehnati natijalarini boshqa bir insonga sotish evaziga daromad topadi, uning iste'molchisi esa o'zining shaxsiy ehtiyojlarini qondiradi. Natijada ular o'rtasida oldi-sotdi (ayirboshlash), ya'ni iqtisodiy munosabatlar yuzaga keladi.

Postindustrial jamiyat nazariyasining asoschisi D.Bell agrar jamiyatda xizmat ko'rsatish sohasining amal qilishini quyidagicha ta'riflaydi: "Xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lganlarning ko'pchilik qismi shaxsiy xizmatlar bilan

⁷⁸ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М.: Эксмо, 2009. – бет.104.

⁷⁹ Котлер, Ф., Маркетинг менеджмент. Экс пресс-курс. 2-е изд. / Пер. с англ. под ред. Божук С. Г. СПб.: Питер, 2006. – 464 с.

⁸⁰ McConnell, Campbell R.; et al. (2009). *Economics. Principles, Problems and Policies* (PDF) (18th ed.). New York: McGraw-Hill. ISBN 978-0-07-337569-4. Archived from [the original](#) (PDF contains full textbook) on 6 October 2016., Glossary, p. G-25.

⁸¹ Гэлбрейт Д.К. Экономические теории и цели общества / пер. с англ. М: Прогресс 1979. с 87-88.

shug‘ullanganlar. Ko‘pincha xizmatkorlar faqat qorin to‘yg‘azish uchun ham mehnat qilganlar, uydagi ish arzon va keng tarqalgan”⁸². Demak, u ham xizmatlar sohasining tub mohiyatini ochishda D.Gelbreyt kabi yo‘l tutgan. Ammo keyinchalik uning xizmat xususidagi ilmiy qarashlari mukammallashgan va bundan ancha farqli fikrlarni ham ilgari surgan. Xususan, sivilizatsiyaning postindustrial rivojlanish bosqichini “axborot jamiyati” va “xizmatlar iqtisodiyoti” sifatida qaragan, “...avvalambor bu xizmatlarga asoslangan jamiyatdir”⁸³, deb ta’kidladi. Demak, olim barcha xizmat ko‘rsatish turlarini qamrab olgan, ishlab chiqarishga nisbatan yordamchi faoliyat turlari kommunal xizmatlar, transport, moliya sohasi, ko‘chmas mulkni boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyotning asosini tashkil etishini va jamiyatning ajralmas qismiga aylanganligini e’tirof etgan.

Gavhar JURAYEVA,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasida stajyor o‘qituvchisi

MINTAQADA INNOVATSIYALARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqaviy innovatsiya tizimlarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Mintaqalarda innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlashning institutsional, moliyaviy va infratuzilmaviy mexanizmlari tahlil qilingan. O‘zbekiston mintaqalari misolida innovatsion salohiyatni baholash metodologiyasi ishlab chiqilgan va innovatsion klasterlarni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari mintaqaviy innovatsiya siyosatini shakllantirishda davlat organlari va biznes subyektlari uchun amaliy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Kalit so‘zlar: mintaqaviy innovatsiya tizimi, innovatsion klaster, texnologiya transferi, innovatsion infratuzilma, mintaqaviy rivojlanish, innovatsion siyosat, uchlik spiral modeli.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования региональных инновационных систем. Проанализированы институциональные, финансовые и инфраструктурные механизмы поддержки инновационной деятельности в регионах. Разработана методология оценки инновационного потенциала на примере регионов Узбекистана и даны рекомендации по развитию инновационных кластеров. Результаты исследования могут иметь практическое значение для государственных органов и субъектов предпринимательства при формировании региональной инновационной политики.

Ключевые слова: региональная инновационная система, инновационный кластер, трансфер технологий, инновационная инфраструктура, региональное развитие, инновационная политика, модель тройной спирали.

Abstract. The article discusses the theoretical and practical aspects of the formation of regional innovation systems. The institutional, financial, and infrastructural mechanisms for

⁸² Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования / пер. с англ. М: Academia 1999 с 169.

⁸³ <https://www.dissentmagazine.org/article/daniel-bell-and-the-end-of-ideology> (murojaat qilingan vaqt 27/02/2024 soat 11:36)